

ZAMONAVIY DUNYODA O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING KUN TARTIBI



O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligi arafasida O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov bilan yurtimizning tashqi siyosatdagi yutuqlari va ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan suhbatlashdik.

- Hozirgi zamonda global miqyosda shiddatli o‘zgarishlar yuz bermoqda, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro maydonda yangi tahlikalar paydo bo‘lmoqda va bu holat dunyo davlatlarini yuzaga kelayotgan muammolarga munosib yechim topish, siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni yangilashga majbur qilmoqda.

Ushbu jarayonlar Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O‘zbekistonga ham daxl qilmay qolmaydi. Aytingchi, bu o‘zgarishlar O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor jihatlarining barqarorligi va bosqichma-bosqichligi, uning asosiy yo‘nalishlarini o‘z o‘rniga qo‘yishga qanday ta‘sir etmoqda?

- XXI asr global tendensiyalarining mamlakatimiz tashqi siyosati ustuvor yo‘nalishlariga ta‘siri muhim masala bo‘lib, shubhasiz, u O‘zbekiston diplomatiyasining kun tartibida doimo dolzarbdir.

Albatta, dunyodagi jarayonlar mamlakatimiz rahbariyati tomonidan O‘zbekistonning tashqi siyosiy kursini belgilash va amalga oshirishda chuqur tahlil qilinmoqda hamda inobatga olinmoqda. Xalqaro maydondagi vaziyat va yuzaga kelayotgan har qanday tahlikadan qat‘iy nazar, davlatimiz mustaqilligi va suvereniteti, xavfsizligi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda barcha fuqarolarimiz farovonligi ishonchli tarzda ta‘minlanishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 29 yilligini izchil ichki islohotlar va yangilangan tashqi siyosat bilan kutib olmoqda. Mamlakat ichki hayotida kuzatilayotgan ochiqlik, innovatsiya va yangilanishlar, shuningdek, iqtisodiy liberallashtirish, bozorni rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ta‘lim va ma‘rifat, fuqarolar faolligi va inson huquqlari himoyasiga e‘tibor - bularning barchasi, shubhasiz, mamlakatimizning tashqi siyosatiga ta‘sir etmoqda.

Aksariyat xalqaro ekspertlar va xorijiy siyosatchilar fikriga ko‘ra, bugun O‘zbekiston Respublikasi o‘zining misli ko‘rilmagan ochiqligi va jadalligi bilan ajralib turgan izchil, aniq va konstruktiv siyosatni olib bormoqda.

Mamlakatning iqtisodiy ochiqligi hamda investitsiyalar va biznes uchun jozibadorligi, barcha muammoli masalalarni yakkidlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik asosida hal etishga intilish, dunyoning yetakchi davlatlari va boshqa mamlakatlari bilan muvozanatli va o‘zaro manfaatli aloqalar yuritish, siyosiy ishonch va xalqaro huquqqa rioya etilishi asosidagi o‘zaro hamkorlikka intilish - bizning xorijiy sheriklarimiz O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan tashqi siyosiy kursni aynan ana shunday tavsiflamoqda.

Tashqi siyosatning aniq jabhalari haqida so‘z yuritishdan oldin mamlakatimizning ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalishlari amalda qanday shakllanishi haqida to‘xtalmoqchiman.

Ustuvor yo‘nalishlar haqida fikr bildirilganda, dunyoning turli mamlakatlari bilan ikki tomonlama aloqalar nazarda tutiladi. Bunda salmoqli siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa salohiyatga ega yetakchi davlatlarga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu tabiiy va mutlaqo adolatlidir.

Ammo, tashqi siyosat qanday asosiy vazifalarni yechim topishi kerakligidan ham kelib chiqish lozim. Ulardan eng muhimi davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli ichki rivojlanishi, islohotlarni amalga oshirish, aholi turmush farovonligining oshishini ta‘minlash, hayot sifatini ko‘tarish uchun qulay tashqi sharoitni yaratish hisoblanadi.

Ikkinchi vazifa – O‘zbekiston atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirishdir. Aynan mamlakatimiz joylashgan mintaqadagi xavfsizlik barqaror rivojlanishning eng asosiy shartidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari – bizning bevosita qo‘shnilarimiz bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi.

O‘zbekiston rahbari tashabbusiga binoan so‘nggi uch yilda mintaqaning barcha mamlakatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashinuvi amalga oshirildi. Mintaqa davlatlari yetakchilari o‘rtasida siyosiy muloqot o‘zaro ishonchga asoslangan muntazamlik va doimiylik kasb etdi. Bunday muloqotlar davomida Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muhim qo‘shma qarorlar qabul qilinmoqda.

Natijada, tarixan qisqa vaqtda O‘zbekistonning mintaqadagi barcha davlatlar bilan munosabatlari tubdan yaxshilandi. Davlat rahbarlari o‘rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotning mustahkamlash natijasida mintaqadagi qo‘shnilar bilan munosabatlarda 2016-yilgacha mavjud bo‘lgan ko‘plab murakkab muammolarga yechim topildi. Prezidentlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch mustahkamlandi.

Qo‘shni mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi aloqalarimiz izchil rivojlanib bormoqda. 2019-yil yakuniga ko‘ra, ular bilan savdo aylanmasi hajmi 5,2 milliard dollarga ko‘tarildi.

Pandemiya sharoitiga qaramay, 2020-yilning birinchi yarmida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiy hajmi 2,17 milliard dollarni tashkil etdi.

Shu bilan birga, biz yaqin qo‘shnilarimiz haqida gapirganimizda, nafaqat Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston, balki Afg‘onistonni ham nazarda tutamiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, Afg‘oniston Markaziy Osiyo mintaqasining bir qismi hisoblanadi, “O‘zbekiston va Afg‘oniston xalqlari asrlar davomida yagona madaniy-sivilizatsion makonda yashab kelgan”. Afg‘oniston hududida Beruniy, Navoiy, Bobur kabi ko‘plab mutafakkir olimlarimiz yashagan va o‘zidan ulkan meros qoldirgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston bilan Afg‘oniston o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar rivojlanib bormoqda. Afg‘oniston xavfsizligini mamlakatimiz xavfsizligi va butun mintaqaning barqarorligi va farovonligi kafolati, deb qabul qilmoqdamiz.

Davlatimiz tashqi siyosatining zamonaviy ustuvor yo‘nalishlari haqida gapirganda, O‘zbekistonning yetakchi xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik aloqalarining rivojlanib borayotganiga alohida e‘tibor qaratish lozim.

O‘zbekiston taraqqiyotning tarixiy va hal etuvchi bosqichidan o‘tib bormoqda. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarning misli ko‘rilmagan keng ko‘lamli dasturi amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning 2035-yilga kelib dunyoning 50 ta iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishiga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadga faqat jahon iqtisodiy va moliyaviy tizimiga muvaffaqiyatli va izchil integratsiyalashuv orqali erishish mumkin.

O‘zbekiston uchun dunyoning Rossiya, AQSh va Xitoy kabi yetakchi davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan mamlakatlar, xususan, Koreya Respublikasi va Yaponiya, Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi, arab-musulmon hamda turkiy tilli davlatlar bilan o‘zaro manfaatli, samarali va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, qayd etilgan ustuvor yo‘nalishlar tartibiga muayyan tuzatishlar kiritish mumkin. Tashqi siyosat nafaqat puxta o‘ylangan, vazmin, balki bir vaqtning o‘zida ildam va qulay bo‘lishi hamda hozirgi tez o‘zgaruvchan, dunyoda yuzaga kelishini oldindan aytib bo‘lmaydigan yangi muammo va tahlikalarga o‘z

vaqtida va munosib javob berishi kerak.

- So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlarida qanday ishlar amalga oshirilgani to'g'risida batafsil so'zlab berishingizni istardik.

- Ko'p ishlar qilindi va O'zbekiston rahbariyati tashqi siyosatning belgilangan ustuvor yo'nalishlarini samarali amalga oshirishga katta ahamiyat bermoqda.

Birinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning eng muhim xalqaro tashabbuslaridan biri - BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida birinchi marta e'lon qilingan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o'tkazish to'g'risidagi taklif amalga oshdi. Ushbu tashabbus xalqaro miqyosda keng tan olindi va mintaqa davlatlarining barcha rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ana shunday shakldagi birinchi uchrashuv 2018-yil Ostona shahrida bo'lib o'tdi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Ikkinchi maslahat sammiti esa 2019-yil 29-noyabr kuni Toshkent shahrida o'tkazildi.

Ushbu tadbirning yakunlari bo'yicha Maslahat uchrashuvi qatnashchilarining tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan Qo'shma bayonoti qabul qilindi. Unda alohida ta'kidlanganidek: «Markaziy Osiyoda mintaqaviy yaqinlashuvning hozirgi tendensiyasi - tarixiy voqelik. Siyosat, xavfsizlik, barqarorlikni saqlash va taraqqiyot sohalarida mintaqaviy hamkorlikni faollashtirish qo'shni mamlakatlar xalqlarining tub manfaatlariga javob beradi, ular o'rtasidagi birodarlik rishtalarining yanada mustahkamlanishi, Markaziy Osiyoning ulkan iqtisodiy va sivilizatsion salohiyatini to'liq amalga oshirishga xizmat qiladi».

Hozirgi vaqtda mintaqa mamlakatlari XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risidagi besh tomonlama davlatlararo hujjatni birgalikda tayyorlamoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston tomonlar o'rtasidagi muloqotga ko'maklashib, Afg'onistondagi tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlash va ilgari surishda faol ishtirok etmoqda, shuningdek, Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamda xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga jalb qilishga yordam beradigan muhim iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda.

O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan siyosati Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish istiqbollari qo'shni Afg'onistonda tinchlikka erishish bilan chambarchas bog'liqligini anglashga asoslanadi.

Ta'kidlash joiz, Afg'onistondagi tinchlik jarayoni uzoq vaqt davomida boshi berk ko'chada qolib ketdi. Bundan ham achinarlisi shundaki, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi boshqa inqirozli vaziyatlar fonida Afg'onistondagi urush jahon hamjamiyati e'tiboridan butunlay chetda qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan dunyo miqyosidagi ushbu o'tkir muammoni xalqaro hamjamiyat kun tartibiga qayta kiritishga erishildi.

2018-yil 26-27-mart kunlari Toshkentda Afg'oniston bo'yicha yuqori darajali xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Federika Mogerini, BMT Xavfsizlik Kengashiga a'zo davlatlar vakillari ishtirok etdi. Afg'oniston muammosini hal qilishga bag'ishlangan bunday keng qamrovli forum birinchi marta ana shunday yuqori darajada o'tkazildi.

Toshkent konferensiyasi chindan ham muvaffaqiyatli o'tgani to'g'risida gapirish uchun bir qancha sabab bor.

Avvalombor, Afg'onistondagi mojaroni hal qilishga ko'maklashish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini yo'lga qo'yish Prezident Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi va afg'on muammosini hal etishdagi strategik qarashlariga, shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan mamlakat tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilab olinganiga asoslanadi.

Amaliy jihatdan Toshkent forumi boshlanishi arafasida Prezidentimizning AQSh, Rossiya, Xitoy rahbarlari, mintaqa mamlakatlari - Hindiston, Pokiston, Eron hamda Markaziy Osiyo davlatlari va, tabiiyki, Afg'oniston

yetakchilari bilan muhim shaxsiy uchrashuvlari va maslahatlashuvlari bo'lib o'tdi.

Toshkent konferensiyasining asosiy natijasi va muvaffaqiyati afg'on inqirozini hal qilish masalasida umumiy xalqaro yondashuvni ishlab chiqish va tasdiqlashga erishilganidadir. Bularning barchasi afg'on muloqotiga aloqador davlatlarning mutlaq ko'pchiligi tomonidan tan olingan Toshkent deklaratsiyasida o'z aksini topdi.

Toshkent konferensiyasi va umuman O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan siyosati afg'on mojarosini hal qilish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarning faollashishiga, tinchlik jarayonini ilgari surishga qaratilgan mintaqaviy savdo-iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarga ushbu mamlakatni jalb qilishga olib keldi.

Shu kunlarda Afg'oniston qator davlatlar, shu jumladan O'zbekistonning faol ko'magida Qatar poytaxti Dohada keng qamrovli afg'onlararo muzokaralarni boshlashga tayyorgarlik ko'rmoqda. Qirq yillik eng shafqatsiz va halokatli urushdan keyin birinchi marta afg'on xalqi o'z mamlakatining tinch kelajagiga haqiqatan umid qilmoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining turli qit'alardagi ko'plab davlatlar va davlat uyushmalari bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Avvalam bor, so'nggi yillarda Rossiya bilan strategik sheriklik va hamkorlik sezilarli darajada mustahkamlandi. Ochiqlik hamda o'zaro ishonchga asoslangan birgalikdagi sa'y-harakatlar natijasida savdo-iqtisodiy, investitsiya, energetika, transport, agrosanoat, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalarida o'zaro hamkorlik ko'lamini sezilarli darajada kengaytirishga erishildi.

Rossiya O'zbekistonning yetakchi savdo-iqtisodiy sheriklaridan biridir. 2019-yil yakuniga ko'ra, Rossiya Federatsiyasining mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 15,7 foizni tashkil qildi. O'zbekiston Rossiyaning turli mintaqalariga to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni yetkazib berishni keskin oshirdi.

Iqtisodiy rivojlanishning ustuvor sohalarida qator yirik loyihalar va dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Rossiyaning atom energetikasi mutaxassislari O'zbekistonda Markaziy Osiyoda birinchi atom elektr stansiyasini qurishga tayyorgarlik ishlarini boshladi.

Agar O'zbekiston - Rossiya munosabatlarining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan madaniy-gumanitar hamkorlik haqida gapiradigan bo'lsak, O'zbekistonda Rossiyaning o'nlab yetakchi universitetlari filiallari ochilganini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti (MISiS), Milliy yadroviy tadqiqot universiteti (MIFI) hamda Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining birinchi xorijiy filiali shular jumlasidandir. Bularning barchasi O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi sheriklik mustahkam poydevorga ega ekani va kelajakka yo'naltirilganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning dunyodagi boshqa yetakchi mamlakatlar bilan munosabatlari ham jadal va o'zaro manfaatdorlik asosida rivojlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil may oyida Vashingtonga rasmiy tashrifi Amerika Qo'shma Shtatlari bilan o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ikki davlat rahbarlari «Strategik sheriklikning yangi davri boshlanishi to'g'risida»gi Qo'shma bayonotni qabul qildilar va o'z sa'y-harakatlarini hamkorlikning o'zaro manfaatli sohalarini rivojlantirishga yo'naltirdilar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy baholandi va qo'llab-quvvatlandi. Bu O'zbekistonning reytingi va xalqaro imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2017-yildan buyon ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar tarixida ilk bor AQShning yuqori martabali iqtisodiy delegatsiyalari - savdo vaziri U.Ross, Missisipi shtati gubernatori F.Brayant, AQShning sertifikatlangan savdo missiyasi (2019-yil) tashriflari amalga oshirildi.

So'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi ikki baravar oshdi. Amerikalik sayyohlarning O'zbekistonga oqimi esa 50 foizga ko'paydi.

AQSh Kongressida nufuzli “O‘zbekiston bo‘yicha kokus”, ya‘ni respublikaning norasmiy do‘stlari guruhi tuzildi.

Toshkentda keng qamrovli, shu jumladan marketing va tadbirkorlik, kompyuter fanlari, media industriyasi, sog‘liqni saqlash boshqaruvi kabi akademik dasturlarni o‘z ichiga olgan Webster universitetining filiali ochildi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari deyarli barcha sohalarda sezilarli darajada mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya (2018-yil), Germaniya (2019-yil) va Turkiyaga (2017-yil va 2020-yil) samarali rasmiy tashriflari bo‘lib o‘tdi. Ta‘kidlash joiz, Turkiya bilan aloqalar an‘anaga ko‘ra O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligining Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Mazkur tashriflar natijasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda natijador kelishuvlarga erishildi. Germaniya Prezidenti F.-Sh.Shtaynmayer (2019-yil) va Turkiya Prezidenti R.T.Erdo‘g‘onning (2018-yil) respublikaga javob tashriflari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Umumiy e‘tirofga ko‘ra, Yevropa bilan ko‘p tomonlama munosabatlarda muhim natijalarga erishildi. 2019-yil may oyida Yevropa kengashi Prezidenti D.Tusk O‘zbekistonga birinchi marotaba tashrif buyurdi. 2017- va 2018-yillarda Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha oliy vakil F.Mogerini yurtimizga tashrif buyurdi. Yevropa tomoni iqtisodiyot, savdo, innovatsiya, investitsiya, transport, fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarda o‘zaro hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi. Bu O‘zbekiston-Yevropa o‘zaro hamkorligining asosiy yo‘nalishlari haqidagi tasavvurimizga to‘liq mos keladi.

2019-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasidagi savdo hajmi undan oldingi yilga nisbatan 60 foizga oshdi va 4 milliard dollarni tashkil etdi. O‘zbekiston mahsulotlarini Yevropaga eksport qilish 580 million dollarni tashkil etib, bir yarim baravarga ko‘paydi. Aniqki, bu sohada tomonlar hali foydalanilmagan ulkan salohiyatga ega.

Shu sababli Toshkent va Bryusselda 2019-yildan beri muhokama qilinayotgan keng qamrovli Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi yangi kelishuv doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish surish istiqbollari jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

Mening fikrimcha, ushbu munosabatlarning eng muhim jihati shundaki, Toshkentning Markaziy Osiyoda olib borayotgan ochiq va konstruktiv tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlagan holda Bryussel mintaqamizga nisbatan o‘z siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqdi. Bu Yelning 2019-yilda qabul qilingan Markaziy Osiyo bo‘yicha yangilangan strategiyasida o‘z aksini topdi. Mazkur hujjatda mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish, Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy barqarorligi va izchil taraqqiyotini Yevropa Ittifoqi tomonidan qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor kuchaytirildi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joiz, so‘nggi uch yilda O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi integratsiya jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirdi. Hamdo‘stlik davlatlari bilan tarixiy, birodarlik aloqalarimizga tayanib, Toshkent MDH doirasida ko‘p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashning qat‘iy tarafdoridir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston MDHning 84 organidan maqsad-vazifalari milliy manfaatlariga javob beradigan 40 dan ortig‘ida ishtirok etmoqda. So‘nggi uch yil davomida O‘zbekiston MDH Iqtisodiy kengashi, Hamdo‘stlik Parlamentlararo Assambleyasi va MDHning 18 ta sohaviy organiga qo‘shildi.

2020-yilda O‘zbekiston MDH tashkil topganidan buyon birinchi marotaba Hamdo‘stlik raisligini qabul qilgani va uni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgani ko‘p narsadan dalolat beradi.

Tashabbuskorligi va pragmatizmi bilan ajralib turadigan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) faoliyatida ham O‘zbekiston faol ishtirok etmoqda. Toshkentning Tashkilotdagi yangi faol kursi sharofati bilan 2017-

yildan buyon O'zbekistonning ShHTdagi xavfsizlik, iqtisodiyot, transport, ilm-fan, turizm va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan 10 dan ortiq tashabbusi amalga oshirildi.

O'zbekiston ShHTda yangi platformalarni yaratish bo'yicha tashabbuskorga aylandi. ShHTning O'zbekistondagi Xalq diplomatiyasi markazi, Temir yo'l ma'muriyatlari rahbarlarining uchrashuvi, Samarqand shahridagi "Ipak yo'li" xalqaro turizm universitetini tashkil etish shular jumlasidandir.

Tashqi siyosatning yana bir yo'nalishi - Osiyo-Tinch okeani mintaqasi - O'zbekiston uchun investitsiyaviy va iqtisodiy hamkorlik va yangi bozorlarni o'zlashtirish nuqtai nazaridan muhimdir. Sir emaski, aynan ushbu mintaqa jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan markazi bo'lib, bu yerda yuqori texnologiyalarning yirik eksport va import qiluvchilari joylashgan.

Bugungi kunda Xitoy bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, qishloq xo'jaligi, qurilish, ilm-fan va ta'lim sohalaridagi hamkorligimiz jadal va o'zaro manfaatli asosda rivojlanib bormoqda. Oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar, shu jumladan davlat rahbarlarining 2017-2020-yillardagi muzokaralari natijasida O'zbekiston-Xitoy strategik sherikchiligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. 2019-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan Xitoy investitsiyalari hajmi 9,8 mlrd. dollardan oshdi, 100 mln. dollarga yaqin miqdorda turli grantlar jalb etildi.

Koreya Respublikasi bilan hamkorligimiz ham e'tiborga loyiqdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yildagi Seulga hamda Prezident Mun Chje Inning 2019-yildagi O'zbekistonga qilgan davlat tashriflari yakunida turli sohalaridagi o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlovchi

20 milliard dollardan ortiq qiymatdagi bitimlar imzolandi. 2019-yilda o'zaro munosabatlar alohida strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi, bu esa tomonlarning do'stlik va o'zaro ishonch munosabatlariga sodiqligining tasdig'idir.

O'zbekistondagi 13 ta universitet, 48 ta maktab va litseyda koreys tili o'rgatilayotgani ham buning dalilidir. Mamlakatimizda Janubiy Koreyaning Inxa, Puchon, Yoju va Koreya xalqaro universiteti kabi mashhur oliy o'quv yurtlarining filiallari faoliyat yuritmoqda, yana ikkitasi ochilishi kutilmoqda.

Yaponiya Osiyodagi an'anaviy va ishonchli sheriklarimizdan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga birinchi rasmiy tashrifi ushbu mamlakat bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy, texnologik, ilmiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni rivojlantirishga yangicha ruh bag'ishladi.

Men Afg'oniston haqida gapirganda, O'zbekistonning strategik muhim mintaqasi - Janubiy Osiyodagi tashqi siyosiy faolligi to'g'risida eslatib o'tgan edim. Shu bilan birga, mamlakatimizning ushbu mintaqaning asosiy aktarlari bo'lgan Hindiston va Pokiston bilan aloqalari jadallashayotgani ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu davlatlar O'zbekistonning ikki tomonlama hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi muhim sheriklaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2020-yillarda Hindistonga tashkil qilingan davlat va amaliy tashriflari, ularning yakunlari bo'yicha imzolangan 20 ta shartnoma, shubhasiz, salmoqli ahamiyatga ega bo'ldi. Bugun yana 20 ga yaqin hujjat imzolash uchun tayyorlanmoqda. Hindistonning o'sib borayotgan iqtisodiy va texnologik salohiyatini inobatga olgan holda, mazkur davlat bilan sog'liqni saqlash, farmatsevtika, ta'lim, turizm, qurilish sohalarida, shuningdek, mintaqaning transport-logistika imkoniyatlarini rivojlantirishda hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari mavjud.

Ma'lumki, Hindiston uchun O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari bozorlariga chiqish juda muhim. Biz esa, o'z navbatida, eksport imkoniyatlarimizni kengaytirish, yangi tashqi bozorlarga chiqishdan manfaatdormiz. Bunday sa'y-harakatlarsiz zamonaviy dunyoda hech bir mintaqasi yoki mamlakat rivojlana olmaydi.

Hindiston bilan an'anaviy yaqin munosabatlar xalqaro maydonda BMT va boshqa ko'p tomonlama formatlarda, shu jumladan "Markaziy Osiyo-Hindiston" muloqoti doirasida ham rivojlantrilmoqda. Ma'lumki, ushbu formatdagi birinchi vazirlar uchrashuvi 2019-yil yanvar oyida Samarqandda bo'lib o'tdi.

Shuni ta'kidlamochimanki, O'zbekiston ochiq tashqi siyosatini jadal ilgari surishni boshlashi bilan mamlakatimiz yetakchi davlatlar bilan "Markaziy Osiyo + Rossiya Federatsiyasi", "Markaziy Osiyo + Xitoy Xalq Respublikasi", "C5 + 1" (AQSh), "Markaziy Osiyo + Yaponiya", "Markaziy Osiyo + Koreya Respublikasi", "Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi" hamkorligi doirasida mintaqaviy muloqotning turli formatlarini rivojlantirishda sermahsul ishtirok etmoqda. Bunday formatlarning paydo bo'lishi xalqaro munosabatlar arxitekturasini, siyosiy va iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning global jarayonlari, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyoning ahamiyati va roli oshib borayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning Pokiston bilan munosabatlari ham sezilarli darajada ilgariadi. 2017-2019-yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev ko'p tomonlama anjumanlar doirasida Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti va Bosh vaziri bilan to'rt marotaba uchrashuvlar o'tkazdi. Mazkur muloqotlar doirasida iqtisodiyot, investitsiya, siyosat va xavfsizlik sohalarida muhim kelishuvlarga erishildi.

O'zbekiston arab-musulmon dunyosi davlatlari bilan ham ishonchli va do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. E'tiborlisi, ushbu davlatlar mamlakatimizga istiqbolli investitsiya bozori sifatida katta qiziqish bildirmoqda. 2011-yil 25-aprel kuni Ashxobodda Turkmaniston, O'zbekiston, Eron va O'mon tomonidan Fors ko'rfazi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida transport koridorini barpo etish bo'yicha to'rt tomonlama bitimning imzolanishi iqtisodiy o'zaro hamkorlik borasida eng muhim yutuqlaridan biri bo'ldi.

O'zbekiston va Yaqin Sharqni geografik yaqinlik, umumiy tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlar birlashtirib turadi. So'nggi yillarda arab mamlakatlari bilan hamkorligimiz barcha yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbari 2017-yil may oyida Saudiya Arabistoni, 2019-yil mart oyida Birlashgan Arab Amirliklariga tashrif buyurdi. O'z navbatida, Misr Prezidenti A. as-Sisi 2018-yil sentabr oyida O'zbekistonda mehmonda bo'ldi.

Oliy darajadagi muzokaralar doirasida tomonlar barcha yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy, investitsiya, energetika, bank va moliya, qishloq xo'jaligi, madaniy-gumanitar, turizm va boshqa sohalarida aloqalarni mustahkamlash masalalarini muhokama qildi.

Prezidentning BAAGA tashrifi davomida qiymati 10 mlrd. dollar bo'lgan 10 ta muhim va 11 ta investitsion hujjatlar imzolandi. Misr Prezidentining O'zbekistonga tashrifi chog'ida qiymati 500 mln. dollarga yaqin 4 ta hukumatlararo, 7 ta idoralararo va 11 ta investitsion bitim tuzildi.

Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida, jumladan, 2017-2020-yillarda Saudiya Arabistoni, Kuvayt, BAA, Isroil, Marokash, Iordaniya va Misr bilan siyosiy maslahatlashuvlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonning Janubiy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan investitsion hamkorligi hozirgi vaqtda qiymati qariyb 1,9 mlrd. dollar bo'lgan 60 dan ortiq loyihani qamrab oladi.

Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) bilan hamkorlik to'g'risida qisqa to'xtalib o'tmoqchiman. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 18-19-oktabr kunlari Toshkentda o'tkazilgan IHT Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-majlisida ishtirok etdi va O'zbekiston raisligi davrida Tashkilot bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, 2017-yil 10-sentabr kuni Ostona (Nur-Sulton) shahrida o'tkazilgan IHTning fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida a'zo davlatlar Prezidentimizning ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifatni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy tashabbuslarini olqishladi.

- Siz O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti uchun o'ta dolzarb bo'lgan mavzu - mamlakatga xorijiy investitsiyalar, texnologiyalarni jalb etish, xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish masalasini ko'tardingiz. TIV va mamlakatimizning xalqaro faoliyatida ishtirok etayotgan boshqa vazirlik va idoralar

oldiga O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qo'yilgan ushbu eng birinchi darajali vazifa qanday bajarilmoqda?

- Investitsiya va texnologiyalarni jalb etish, mahalliy eksportni kengaytirish, tashqi bozorlarda milliy kompaniyalar brendini ilgari surish, yurtimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlash, turizmni rivojlantirish iqtisodiy diplomatiyaning eng asosiy vazifasidir. Bugungi kunda ushbu yo'nalish ish faoliyatimizning ajralmas qismiga aylangan.

So'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning topshiriq va ko'rsatmalariga muvofiq, yagona tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda TIVning O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan o'zaro aloqalari kuchaytirildi. Ikkala vazirlikning birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish uchun tegishli tuzilmalar tashkil qilindi. Mahsulot va xizmatlar eksportini diversifikatsiyalash, respublikaga investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, sayyohlar oqimini oshirish maqsadida Vazirlik va O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari ish uslubi va tizimiga yangi yondashuvlar joriy qilinmoqda.

TIV tizimida Iqtisodiy diplomatiya departamenti tashkil etilib, u bevosita mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, xorijiy investitsiyalar va moliyaviy-texnik ko'makni jalb etish, turizm sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Xalqaro ishbilarmon doiralari bilan aloqalarni faollashtirish, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa yirik xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikni jadallashtirish iqtisodiy diplomatiyaning muhim yo'nalishlariga aylandi.

2020-yilning birinchi yarmida O'zbekiston hukumati va kompaniyalari rasmiy delegatsiyalarining dunyoning 48 davlatiga tashriflari tashkil etildi. Xorijiy davlatlarning savdo-iqtisodiy idoralari rahbarlari va vakillari bilan 250 dan ortiq uchrashuv va biznes-forumlar o'tkazildi. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatiga bag'ishlangan taqdimot marosimlari uyushtirildi.

O'tgan yarim yil ichida respublikada qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, tibbiyot, farmatsevtika, ta'lim, madaniyat va boshqa tarmoqlarga 3,154 mlrd. dollar miqdoridagi investitsiyalar va kreditlar jalb etildi va o'zlashtirildi.

Pandemiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun xorijiy davlatlardan 11,6 mln. dollar miqdoridagi insonparvarlik yordami, moliyaviy-texnik ko'mak va grantlar jalb qilindi.

- Rahmat, Siz iqtisodiy diplomatiya masalalarini batafsil bayon qilib berdingiz. Shu bilan birga, mamlakatimizning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatida yangi yo'nalishlarni rivojlantirish istiqbollari haqida ham fikrlaringizni bildirsangiz. Ma'lumki, avvallari bu masalaga kam e'tibor berilgan.

- Ha, albatta, bunday yo'nalishlar mavjud. Ulardan biri ma'naviy qadriyatlari va tarixi mushtarak bo'lgan turk dunyosi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi munosabatlarimizdir.

O'zbekistonning 2019-yil 15-oktabr kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga (TDHK, Turkiy kengash) a'zo bo'lishi turkiy sivilizatsiyaning rivojlanishida yurtimizning tarixiy roli hamda Toshkentning ko'p tomonlama diplomatiyasi faollashuvi nuqtai nazaridan muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston o'tgan qisqa davrda Turkiy kengashdagi ishtiroki doirasida qator muhim tashabbuslarni amalga oshirishga erishdi. Xiva shahri "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" deb e'lon qilindi, TDHKning COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi guruhi va Transport sohasida hamkorlik bo'yicha Ishchi guruhi tashkil qilindi. TDHK va JSST o'rtasida Memorandum loyihasi tayyorlanmoqda.

Mamlakatimizning Turkiy kengashda ishtiroki nafaqat Markaziy Osiyo, balki Kavkaz va Yevropa davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarning rivojlanishi va kengayishiga xizmat qiladi. Bu bilan mazkur mintaqalar transport-logistika yo'nalishlarini o'zaro bog'lash uchun yangi istiqbollar yaratilmoqda,

hududlararo savdoni rivojlantirish bilan birga mamlakatlarga yangi bozorlarga chiqish, transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish imkoni yaratilmoqda.

Biz, shuningdek, Fors ko'rfazidagi arab davlatlari hamkorlik kengashiga qator a'zo davlatlar, xususan Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar va O'mon bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni sezilarli ravishda faollashtirish niyatidamiz.

- Bugungi kunda respublikada yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tarbiyasi va ma'rifati, shuningdek, barcha darajalarda ta'lim olish va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha muhim choralar ko'rilmogda. Ushbu tashabbuslar xalqaro maydonda qanday amalga oshirilayotgani haqida gapirib bersangiz. Bundan tashqari, o'zbek diplomatiyasi tizimida yoshlarni rag'batlantirish, yosh kadrlarni o'qitish va tayyorlash masalalari qanday hal qilinayotgani haqida ham to'xtalsangiz.

- Ushbu dolzarb savolingiz uchun minnatdorlik bildiraman. Davlatimiz rahbari keng ma'noda mamlakatimiz kelajagining egalari bo'lgan yosh avlodga ulkan e'tibor qaratmoqda.

Aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadigan, qaysi sohaga tegishli bo'lishidan qat'i nazar amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda yosh avlod, farzandlarimizning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish Prezidentimiz tomonidan ustuvor yo'nalish etib belgilangan O'zbekiston uchun bu ayniqsa muhimdir.

Jahon hamjamiyatida O'zbekiston Prezidentining yoshlarni islohotlar va modernizatsiya jarayonlariga jalb qilmasdan, davlatlarni rivojlantirish va xususan insoniyat duch kelayotgan ko'plab muammolarni hal qilish mumkin emasligi haqidagi g'oyasi keng e'tirof etildi. Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirini kamaytirish, pandemiya va boshqa tabiiy ofatlar bilan kurashish shular jumlasidandir. Muhtaram Prezidentimizning so'zlari bilan aytganda, ushbu masalalarning barchasi "o'zaro kelishilgan global hamkorlikni va mavjud muammolarni hal etish jarayonlariga yoshlarni faol jalb qilishni talab etmoqda".

Islom hamkorlik tashkiloti va BMT doirasida ilgari surilgan yuqorida zikr qilingan takliflardan boshlab, yoshlarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalariga bevosita aloqador bo'lgan bugungi kunda barchaga ma'lum qator xalqaro tashabbuslar O'zbekiston rahbariga tegishlidir. Men yaqinda bo'lib o'tgan "Yoshlar-2020: global hamjihatlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari" mavzusidagi inson huquqlari bo'yicha Samarqand onlayn forumini nazarda tutmoqdaman. Unda taniqli xorijiy olimlar, jamoat arboblari, BMT, YuNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Parlamentlararo ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, ShHT, MDH, IHT vakillari va boshqa sheriklarimiz ishtirok etdi.

Keng doiradagi ushbu forum qatnashchilari O'zbekiston rahbarining 2017-yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish to'g'risidagi tashabbusini bir ovozdan ma'qulladi. Ushbu taklif, asosan, insoniyatning yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, uning erkin bo'lishi va barcha sohalarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini qonuniy ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

BMT, Venetsiya komissiyasi, YXHT rahbarlari, xalqaro ombudsmanlar va forumning boshqa taniqli ishtirokchilari ta'kidlaganidek, Samarqand forumining natijalari "kelajak uchun huquqiy vositalar"ni ishlab chiqish va ilgari surishda yoshlarni jalb qilishga hamda "barqaror rivojlanish loyihalarida ular faolligini oshirishga qaratilgan 2030-yilgacha BMTning yoshlar strategiyasi barqarorligini ta'minlash"ga xizmat qiladi.

Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning qabul qilinishi esa hozirgi zamonda yoshlarning qonuniy manfaatlarini e'tirof etish va inobatga olish, dunyoda yosh avlodning har tomonlama shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga imkon yaratadi.

Savolingizning ikkinchi qismiga kelsak, respublikamiz rahbariyati tomonidan kadrlar tayyorlashning barcha tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan va O'zbekistonning dunyodagi eng taraqqiy etgan davlatlar

qatorida mustaqil izchil rivojlanishi uchun zarur bo'lgan katta miqdordagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganini alohida ta'kidlamoqchiman.

Bu borada asosiy e'tibor davlatimiz manfaatlarini xalqaro maydonda faol va muvaffaqiyatli ilgari sura oladigan xalqaro munosabatlar sohasida yosh mutaxassislar hamda o'zbek diplomatiyasi uchun professional kadrlarni tayyorlashga qaratilmoqda.

O'zbekistonning xalqaro aloqalarini kengaytirish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini va rolini mustahkamlash bo'yicha yangi vazifalarni samarali bajara oladigan diplomatik xizmat uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish choralari ko'rildi.

Jumladan, 2018-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bugungi kunda JIDU - xalqaro iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar va siyosiy fanlar, xalqaro huquq sohaslarida mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi asosiy oliy ta'lim muassasasi, ta'bir joiz bo'lsa, yetakchi universitet hisoblanadi.

JIDU ni o'z tizimiga olgan tashqi siyosiy mahkama rahbari sifatida shuni tasdiqlashim mumkinki, keyingi yillarda respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati sohasidagi xalqaro mutaxassislarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yuqori darajaga olib chiqishga erishildi. Bunda, shu jumladan chet el tajribasidan foydalanildi hamda universitetning o'z ilmiy va amaliy tadqiqotlari yanada rivojlantirildi.

Sodda qilib aytganda, universitetning munosib professor-o'qituvchilari tarkibi shakllantirildi, murakkab tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan kasb malakasi, chuqur bilim va tahliliy ko'nikmalarga ega bo'lgan o'zbek diplomatiyasining yosh bilimli kadrlari tarbiyalandi. Bugungi kunda JIDU bitiruvchilari O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari, respublikaning xalqaro tashkilotlardagi vakillari, tashqi ishlar vazirining o'rinbosarlari sifatida, shuningdek, mamlakatning boshqa muhim vazirlik va idoralarida mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritmoqda.

Biz O'zbekiston diplomatiyasini zamonaviy talablarga javob beradigan, xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat manfaatlarini mas'uliyatli va samarali himoya qiladigan darajada takomillashtirish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Lutfulla Suvonov suhbatlashdi

Manba